



AXBOROT TIZIMLARI VA TEXNOLOGIYALARI ORQALI ZIYORATGOH VA QADAMJOLARNI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI

Bozarov Elyor Boboqulovich

*QarshiDU, Turizm va marketing kafedrası tadqiqotchisi. email:
ebozarov13@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada ziyorat turizmini rivojlantirish, ziyorat tushunchasi va raqamli turizm haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar. *mintaqa, ziyorat, raqamli ziyoratgoh, tuzilma.*

Kirish. Mamlakatda mintaqa ziyoratgoh va qadamjolarni rivojlantirishda turizm industriyasining iqtisodiyotiga bevosita taʼsiri barcha darajadagi budjetlarning daromad qismida, yalpi ichki mahsulotning shakllanishida, turizm sohasida ish oʻrinlarining koʻpayishida oʻz aksini topadi, bu esa oʻz navbatida aholini yanada turmush darajasii yaxshilash va daromadlarni oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Oʻzbekistonda ziyorat turizmi segmentini rivojlantirish va uning turistik xizmatlar eksportidagi ulushini oshirish boʻyicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi ⁶⁸. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4699 –sonli qarori⁶⁹ 2018 yilda Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatda turizmni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan 11 ta hujjat, Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa 25 ta meyoriy-huquqiy hujjat imzolandi.

Tadqiqotda statistik maʼlumotlarga tayangan xolda turizm statistikasi boʻyicha xalqaro tavsiyalar shuni asoslab beradiki, turistik xizmat mahsulot bu “turli koʻrinishlarning (ziyosat qilinadigan joylarning xususiyatlari, transport turlari, joylashtirish turlari, belgilangan manzillardagi muayyan tadbirlar va boshqalar) yigʻindisi, masalan, qoʻriqxonalariga ekskursiyalar, tarixiy va madaniy joylarga tashrif buyurish, maʼlum bir shaharga tashrif buyurish, maʼlum bir sport turi bilan shugʻullanish, plyaj turizmi va boshqalar. Mintaqa ziyoratgohning asosiy turizmini oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish istiqbollari belgilash maqsadida turizm obyekti sifatidagi “ziyosat” atamasining mohiyati va tabiatini anglab olish lozim. Adabiyotlarda bu atamaning xususiyatlari hali-hanuzgacha yoritilmagan. Maqolada biz mazkur atamaga ziyorat turizmini oʻlkamizda komil

Mirziyoyev Sh.M. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq soʻzi, 24.01.2020 yil.

⁶⁹ <https://lex.uz/ru/docs/4800657>



insonni shakllantirishga qo'shadigan hissasi va diversifikatsiyalash imkoniyatlarini qo'llash nuqtai nazaridan qarab, ta'rif va tavsif beramiz.

Turizm rivojiga taaluqli barcha sohalarida innovatsion ma'lumot olish manbalarini joriy qilish va ularni jadal takomillashtirish raqamli makonni shakllantirib, undan samarali foydalanish nafaqat mahalliy sayohatchilar, balki xorijiy sayyohlar uchun ham muhim omillardan biri sanaladi.

Raqamli ziyoratgoh turizm xizmatlari ziyoratchiga marshrutni rejalashtirishda yordam berish uchun kerakli ziyorat joyni topish bo'yicha maslahat berishi mumkin. Bundan tashqari, ular o'z mobil telefonlariga mobil ilova qo'llanma sifatida o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Mintaqa ziyoratgoh qadamjolarini raqamlashtirish sharoitida ziyoratchi o'zi ma'lum bir joy haqida ma'lumot qidiradi, ma'lum bir yo'nalishlarni tanlaydi va xizmatlarning narxlarini taqqoslaydi. Jarayon ziyoratchiga o'zi yoqtirgan turni sotib olish bilan yakunlanadi va xizmatlar unga kechayu kunduz taqdim etiladi, bu esa xizmat sifatini yaxshilaydi va mijozning qoniqishini oshiradi. E'tibor bering, raqamli imkoniyatlar doimiy ravishda kengayib bormoqda va undan foydalanish imkoniyati oshmoqda.

Turistik axborot tizimini – tourist information systems (tis) - elektron turizm (e-turizm) va elektron sayohatlar (e-sayohat) bilan shug'ullanuvchilarga tashkilotlarning axborot xizmatlarini ko'rsatishi, biznesning yangi tizimi. Ushbu manbalardan olingan ma'lumotlar turli vazifalarni - jumladan, sayohatni rejalashtirish, narxlarni taqqoslash hamda turistik paket va ekskursiyalarni yaratishda qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, deb hisoblaydi⁷⁰.

Bizning fikrimizcha mintaqa ziyoratgoh va qadamjolar turizmda GATning foydalanish resurslaridan ya'ni, tabiat va jamiyat obyektlari, hodisalari haqidagi topografiklar, geodezik, yer, suv resurslari va boshqa kartografik axborotni yig'ish, ularga ishlov berish, zamonaviy axborot texnologiyalarining xotirasida saqlash, yangilash, taxlil qilish, yana qayta ishlashni ta'minlovchi avtomatlashtirilgan dasturli kompleksi, deb ta'rif beramiz. Olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar doirasida ilmiy adabiyotlardagi ziyorat turizmining rivojlanish xususiyatlari, resurslari va ulardan foydalanish yo'llari bilan bog'liq fikir va mulohazalar tahlil qilindi.

Bugungi kunda, Qashqadaryo viloyati hududlarida o'ziga xos turistik resurslar, moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud. Statistik ma'lumotlar bo'yicha hozirgi vaqtda Qashqadaryo viloyatida 1426 ta moddiy-madaniy meros resurslari, ya'ni arxeologiya, arxitektura, monumental san'at yodgorliklari hamda diqqatga sazovor joylar mavjud. Statistik ma'lumotlar bo'yicha, bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida 875 ta arxeologiya, 481 ta arxitektura, 32 ta monumental san'at yodgorliklari hamda 35 ta diqqatga sazovor joylar, 24 dan ortiq sanatoriya va dam olish uylari mavjud.

⁷⁰ Turizm sohasining zamonaviy atamalari izohli lug'ati: ma'lumotlar to'plami /I.S.Tuxliyev, M.E.Po'latov, A.SH.Berdimurodov. –T.: «Fan va texnologiya», 2019, 220 bet.



Qashqadaryoda ziyorat turizmini rivojlantirish resurslari, ya'ni "Abu Ubayda ibn al-Jarroh ziyoratgohi" majmuasi, "Odina masjidi" yodgorlik majmuasi, "Ko'kgumbaz masjidi", "Imom Mo'yin an-Nasafiy majmuasi" ziyoratgohi, "Shayx Shibliy ziyoratgohi" ziyoratgohi, "Yerqo'rg'on arxeologiya yodgorligi" majmuasi, "Sulton Mir Haydar yodgorlik majmuasi" maqbarasi, "Langar ota maqbarasi" ziyoratgohi, "Muborak Marvaziy maqbarasi" ziyoratgohi, "Isoq ota maqbarasi" ziyoratgohi, "Jahongir Mirzo maqbarasi" ziyoratgohi, "Amir Temur yer osti dahmasi" ziyoratgohi, "Oq saroy majmuasi" ziyoratgohi, "Xo'jailg'or maqbarasi" ziyoratgohi, "Hazrati Bashir maqbarasi" ziyoratgohi, "Langar ota ziyoratgohi" ziyoratgohi va boshqa ko'plab ziyoratgohlar mavjudligi hududning ziyorat turizmi imidjini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi, 24.01.2020 yil.
2. Turizm sohasining zamonaviy atamaları izohli lug'ati: ma'lumotlar to'plami /I.S.Tuxliyev, M.E.Po'latov, A.SH.Berdimurodov. –T.: «Fan va texnologiya», 2019, 220 bet.
3. Бабкин А.В. Специальные виды туризма. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – 252 с
4. Винокуров М.А. Что такое туризм? // Известия Иркутской государственной экономической академии. – 2004. – № 3. – С. 19-24.
5. Tuxliyev I.S., Po'latov M.E., Berdimurodov A.SH. "Turizm sohasining zamonaviy atamaları izohli lug'ati: ma'lumotlar to'plami". S.: 2020 y.
6. Xudoyarov A. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: Monografiya / Toshkent: OOO "Complex Print", 2021. -304 b.
7. Jiyanov O.P., Xudoynazarov Y.R. "O'zbekiston-ziyosat turizm markazlaridan biri". Buyuk ipak yo'li chorrahasida ziyosat turizmining renessansi (ilmiy maqolalar to'plami). S.: 2019 y. -192 b.

Internet saytlari:

1. <https://unstats.un.org>
2. <http://ru.wikipedia.org>